

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUQ O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQARISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И ЛИЗИНГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	324
Исомов Б.С.	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО МОДУЛЯ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА.....	330
Ботиров Бозорбек, Тураев Фарходжон	
KAM RESURSLI TILLARDAGI ILMIY JURNALLAR UCHUN METAMA'LUMOTLARNI AVTOMATIK EKSTRAKSIYA QILISH VOSITASI.....	336
Rashid Turgunbaev	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНА.....	342
Дадажанов Арафатали Комилжанович	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	348
Yorqin Khudoyiberdiev	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	352
Yorqin Khudoyiberdiev	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK TAHLIL QILISH	360
Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI AUDIT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI	365
To'rayeva Farida Rustam qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL BOZORI VOSITALARI ORQALI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	369
Qurbonov Javlonbek, Farxodova Aziza	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	374
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA DAROMADLARINING PROGNOZI	378
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	385
Raximov Zafar Komilovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLIL QILISH	392
Akbarova Barno Shuxratovna	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	398
Bazarov Diyor Gafurovich	

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Bazarov Diyor Gafurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: b.diyor_2002@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik tadbirkorlik subyektlarini strategik boshqarish mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslari va amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Kichik tadbirkorlik faoliyatining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda strategik maqsadlarni belgilash, ichki resurs va kompetensiyalarni ustuvor yo'nalishlarga safarbar etish, bozor muhitidagi o'zgarishlarga moslashish, innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni o'zaro muvofiqlashtirish zarurati asoslangan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv mexanizmlari sifatida uzoq muddatli rejalashtirish, resurslar konfiguratsiyasini boshqarish, innovatsion yangilanish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik, tashqi muhit o'zgarishlarini monitoring qilish va adaptiv boshqaruv qarorlarini shakllantirish yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida strategik boshqaruvning mazkur elementlarini o'zaro integratsiyalash kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy hayotiyiligi, raqobatbardoshligi, tashqi ta'sirlarga chidamliligi va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, strategik boshqaruv, adaptiv boshqaruv, innovatsion faollik, resurslar konfiguratsiyasi, tashkiliy moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik, strategik monitoring, iqtisodiy chidamlilik.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations and practical significance of strategic management mechanisms for small business entities in ensuring sustainable development. It substantiates the need to define strategic objectives, mobilize internal resources and competencies toward priority areas, adapt to changes in the market environment, support innovative activity, and coordinate economic, social, and environmental interests in order to ensure the long-term development of small businesses. The strategic management mechanisms contributing to the sustainable development of small business entities are systematized across such areas as long-term planning, resource configuration management, innovative renewal, stakeholder collaboration, monitoring changes in the external environment, and the formulation of adaptive management decisions. The findings substantiate that the integration of these strategic management elements contributes to strengthening the economic viability, competitiveness, resilience to external impacts, and long-term development potential of small business entities.

Keywords: small business, sustainable development, strategic management, adaptive management, innovative activity, resource configuration, organizational flexibility, competitiveness, strategic monitoring, economic resilience.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы и практическое значение механизмов стратегического управления субъектами малого предпринимательства в обеспечении устойчивого развития. Обоснована необходимость определения стратегических целей, мобилизации внутренних ресурсов и компетенций по приоритетным направлениям, адаптации к изменениям рыночной среды, поддержки инновационной активности, а также согласования экономических, социальных и экологических интересов в целях обеспечения долгосрочного развития малого предпринимательства. В качестве механизмов стратегического управления, способствующих устойчивому развитию субъектов малого предпринимательства, систематизированы такие направления, как долгосрочное планирование, управление конфигурацией ресурсов, инновационное обновление, взаимодействие с заинтересованными сторонами, мониторинг изменений внешней среды и формирование адаптивных управленческих решений. По результатам исследования обосновано, что взаимная интеграция данных элементов стратегического управления способствует укреплению экономической жизнеспособности, конкурентоспособности, устойчивости к внешним воздействиям и потенциала долгосрочного развития субъектов малого предпринимательства.

Ключевые слова: малое предпринимательство, устойчивое развитие, стратегическое управление, адаптивное управление, инновационная активность, конфигурация ресурсов, организационная гибкость, конкурентоспособность, стратегический мониторинг, экономическая устойчивость.



KIRISH

Raqobat muhitining murakkablashuvi, texnologik yangilanish sur'atlarining tezlashuvi, raqamli biznes modellarining kengayishi, iste'molchilar talabining keskin o'zgarishi hamda ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga nisbatan talablarning kuchayishi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini an'anaviy operativ boshqaruv doirasidan chiqarib, uni uzoq muddatli strategik yondashuv asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Kichik tadbirkorlikning bozordagi moslashuvchanligi, qaror qabul qilish tezligi va yangi imkoniyatlarni o'zlashtirish qobiliyati uning muhim ustunliklari hisoblanadi. Biroq ushbu afzalliklarning barqaror iqtisodiy natijaga aylanishi korxonaning mavjud resurslari, boshqaruv kompetensiyalari, innovatsion salohiyati va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni yagona strategik maqsad doirasida muvofiqlashtirishga bevosita bog'liq. Shu jihatdan kichik tadbirkorlik subyektlarini strategik boshqarish masalasi faqat biznes ko'lamini kengaytirish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks boshqaruv jarayoni sifatida tobora katta ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Barqaror rivojlanish tushunchasini kichik tadbirkorlik faoliyatiga tatbiq etishda uning mazmunini faqat korxonaning uzoq muddat faoliyat yuritishi bilan cheklash yetarli emas. Mazkur kategoriya biznesning bozor pozitsiyasini saqlashi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini muntazam yangilab borishi, inson kapitalini rivojlantirishi, texnologik o'zgarishlarga moslashishi, resurslardan oqilona foydalanishi, manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalarni shakllantirishi va "tashqi iqtisodiy o'zgarishlar va xatarlarga yetarli darajada bardoshlilik namoyon eta olishini ham qamrab oladi [1]. Shu sababli kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi mavjud resurslarni joriy ehtiyojlarga taqsimlashdan ko'ra kengroq bo'lib, istiqboldagi bozor imkoniyatlarini oldindan aniqlash, strategik ustuvorliklarni belgilash va korxonaning ichki salohiyatini ushbu ustuvorliklarga mos ravishda transformatsiya qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi mamlakatning o'rta va uzoq muddatli taraqqiyot siyosatida ham ustuvor o'rin egallamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining maqsad va samaradorlik ko'rsatkichlari yangilangan bo'lib, ularning ijrosini raqamli monitoring qilish tizimi ham belgilangan [2]. Strategiyada samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish holatini "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarda kuzatib borish tartibining joriy etilishi strategik boshqaruvning natijadorlikka yo'naltirilgan mexanizmlarini davlat boshqaruvi darajasida institutsional asosda joriy etishga xizmat qiladi.

PF-21-son Farmoni bilan yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030-yilga kelib 60 foizga yetkazish ustuvor samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri sifatida belgilangan. Strategik rivojlanish yo'nalishida ushbu ulushni 2026-yilda 54 foiz, 2027-yilda 56,1 foiz, 2028-yilda 58,2 foiz, 2029-yilda 59,2 foiz va 2030-yilda 60 foiz darajasiga olib chiqish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari orasida uch va undan ortiq yil faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar ulushini 2030-yilgacha 60 foizga yetkazish belgilangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichning o'ziyov davlat siyosatida tadbirkorlik subyektlarining son ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, ularning uzoq muddatli faoliyati va institutsional barqarorligiga ham e'tibor kuchayayotganini ko'rsatadi.

Mazkur maqsadlar kichik tadbirkorlikni strategik boshqarish mexanizmlarining mazmunini yangicha talqin qilishni talab qiladi. Chunki biznesning uch yildan ortiq davomiy faoliyat ko'rsatishi faqat dastlabki kapital yoki bozor imkoniyatlarining mavjudligi bilan emas, balki korxonaning strategik rejalashtirish sifati, bozor signallarini qayta ishlash qobiliyati, mahsulot va xizmatlarni muntazam yangilash, inson resurslarini rivojlantirish, xarajatlar va biznes jarayonlarini qayta tashkil etish hamda boshqaruv qarorlarini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznesning "yashovchanligi" uning strategik boshqaruv tizimi sifatini aks ettiruvchi muhim natijaviy mezonga aylanadi.

Milliy statistika ma'lumotlari ham kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi miqyosi kengayib borayotganini ko'rsatadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 474,9 mingtani tashkil etgan bo'lsa, ularning 403,8 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, 2025-yil davomida mamlakatda 87,8 mingta yangi korxona va tashkilot tashkil etilib, ularning 82,4 mingtasini kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilgan [3]. Mazkur raqamlar kichik biznesning tadbirkorlik ekotizimidagi miqyosi nihoyatda katta ekanini ko'rsatish bilan birga, yangi tashkil etilgan korxonalarning kelgusida bozorda mustahkam o'rin egallashi, faoliyatini saqlab qolishi va rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi strategik boshqaruv mexanizmlariga ehtiyoj yuqori ekanligini ham anglatadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtiroki ham barqaror rivojlanishning muhim mezonlaridan biridir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hajmi 12,38 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Taqqoslash uchun, ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 9,30 milliard dollar bo'lgan. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik

subyektlarining mamlakat jami eksportidagi ulushi 2024-yildagi 34,1 foizdan 2025-yilda 36,6 foizga oshgan. 2026-yilning ikkinchi choragi yakunlariga ko'ra esa kichik tadbirkorlik eksportining hajmi 7,48 milliard dollarga yetgan va uning jami eksportdagi ulushi 47,2 foizni tashkil etgan [4]. Mazkur dinamika kichik biznesning faqat ichki bozorga xizmat qiluvchi iqtisodiy segmentdan xalqaro qiymat yaratish jarayonida faol ishtirok etuvchi subyektga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Eksport faoliyatining kengayishi esa strategik boshqaruv oldiga yangi talablarni qo'yadi. Tashqi bozorlarda faoliyat yuritish kichik korxonadan mahsulot sifati, xalqaro standartlar, bozor segmentatsiyasi, brend boshqaruvi, logistika, raqamli savdo kanallari va hamkorlik tarmoqlarini uzoq muddatli strategiya bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. PF-21-son Farmoni bilan yangilangan strategiyada eksportchi korxonalar sonini 15 mingga, xalqaro standartlarni joriy qilgan eksportchi korxonalar sonini 5 mingga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 70 foizga olib chiqish hamda xorijiy bozorlarga 15 ta nufuzli milliy brend chiqarish maqsadlarining belgilanishi ham biznes subyektlari rivojlanishining miqdoriy o'sishdan sifat va raqobatbardoshlikka asoslangan bosqichga o'tishini anglatadi.

Kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishida ekologik omillarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Zamonaviy biznes muhitida resurs tejamkorligi, energiya samaradorligi, ekologik talablar va "yashil" ishlab chiqarish prinsiplari nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki korxonaning tannarxi, bozordagi obro'si va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi strategik omillarga aylanmoqda. PF-21-son Farmoni bilan yangilangan strategiyada "yashil" iqtisodiyotga o'tish, energiya tejamkorligini kuchaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va xususiy sektorning ekologik loyihalardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bir qator samaradorlik ko'rsatkichlari belgilangan. Bu esa kichik biznesni strategik boshqarishda iqtisodiy samaradorlik bilan ekologik mas'uliyatni qarama-qarshi maqsadlar sifatida emas, balki uzoq muddatli raqobatbardoshlikning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Strategik boshqaruvning mazmuni korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash bilangina cheklanmaydi. U tashqi muhitni muntazam tahlil qilish, muqobil rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish, mavjud resurslarni ustuvor maqsadlarga mos taqsimlash, strategiyani amalga oshiruvchi tashkiliy mexanizmlarni yaratish hamda erishilgan natijalarni mezonlar asosida nazorat qilib borishni nazarda tutadi. Kichik biznesda resurslar va boshqaruv apparati nisbatan cheklanganligi sababli ushbu jarayon yirik korxonalardagidan farqli ravishda soddalashtirilgan, ammo yuqori darajada moslashuvchan bo'lishi lozim [5]. Shu bois strategik boshqaruv mexanizmi kichik tadbirkorlik subyekti uchun murakkab ma'muriy rejalashtirish tizimi emas, balki strategik maqsad, bozor imkoniyatlari, mavjud kompetensiyalar va tezkor boshqaruv qarorlarini bir-biriga bog'lovchi amaliy boshqaruv arxitekturasini sifatida shakllanishi zarur.

Kichik tadbirkorlikda strategik boshqaruvning ahamiyatini oshiruvchi muhim jihatlardan biri biznesning hayotiy siklining dastlabki bosqichlaridagi yuqori noaniqlikdir. Korxona tashkil etilgandan keyin bozorga kirish, mijozlar bazasini shakllantirish va faoliyat ko'lamini kengaytirish jarayonlari o'z-o'zidan barqaror rivojlanishni ta'minlamaydi. Uzoq muddatli faoliyat uchun biznesning dastlabki muvaffaqiyatlari takrorlanadigan va institutsionallashtirilgan boshqaruv jarayonlariga aylantirilishi, tashkilot ichida vazifalar va vakolatlar aniqlashtirilishi, bozor ma'lumotlaridan muntazam foydalanish tizimi yaratilishi hamda strategik qarorlar alohida rahbarning intuitiv qarashlaridan korxonaning tashkiliy kompetensiyasiga ko'chirilishi lozim [6]. Aynan mazkur o'tish kichik biznesning qisqa muddatli tadbirkorlik faolligidan barqaror tashkilot sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Barqaror rivojlanishni strategik boshqarish jarayonida korxonaning tashqi muhitga moslashuvi bilan bir qatorda ichki transformatsiya qobiliyati ham muhim hisoblanadi. Bozor imkoniyatlarini aniqlashning o'zi yetarli emas; korxona ularni o'zlashtirish uchun mavjud resurslar va kompetensiyalarini qayta tashkil eta olishi lozim. Shu sababli strategik boshqaruv mexanizmlariga resurslarni qayta taqsimlash, yangi faoliyat yo'nalishlarini shakllantirish, xodimlar kompetensiyalarini rivojlantirish, biznes jarayonlarini qayta loyihalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish kabi yo'nalishlarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv kichik korxonaga tashqi muhitdagi o'zgarishlarni faqat salbiy omil sifatida baholash emas, balki ularni yangi rivojlanish imkoniyatiga aylantirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik tadbirkorlik subyektlarini strategik boshqarish masalasi zamonaviy menejment nazariyasida korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini shakllantirish, strategik yo'nalishni tanlash, ichki resurs va kompetensiyalarni qayta konfiguratsiya qilish, innovatsion yangilanish, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bilan bog'liq holda tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarining resurslari nisbatan cheklanganligi sharoitida barqaror rivojlanish strategik rejalashtirishning mavjudligi bilangina emas, balki korxonaning o'z strategiyasini o'zgarayotgan bozor sharoitlariga muvofiq yangilash va mavjud imkoniyatlarni yangi raqobat



ustunliklariga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan N. Zahoor va Y. Kyu Lew kichik va o'rta korxonalarning barqaror faoliyatini strategik orientatsiya hamda dinamik qobiliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tahlil qilgan. Mualliflarning fikricha, tadbirkorlik orientatsiyasi korxonani yangi imkoniyatlarni izlashga undasa, hamkorlikka yo'naltirilgan strategik orientatsiya tashqi tashkilotlar bilan resurs va bilim almashinuvini kengaytiradi [7]. Ushbu ikki yo'nalishning uyg'unlashuvi kichik korxonada dinamik qobiliyatlarni shakllantirib, tashqi bozor o'zgarishlariga moslashish va uzoq muddatli natijadorlikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Tadqiqot 211 ta ekologik mas'uliyatga yo'naltirilgan kichik va o'rta korxona ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, strategik orientatsiya va dinamik qobiliyat o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan tasdiqlangan. Ch. Larabi kichik va o'rta biznesning barqaror faoliyatida innovatsion qobiliyat, strategik orientatsiya va strategik yangilanish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etadi. Olimning yondashuviga ko'ra, barqaror natijadorlik korxonaning mavjud strategiyasini uzoq vaqt davomida o'zgartirmasdan qo'llashi orqali emas, balki innovatsion imkoniyatlarni aniqlash va strategik ustuvorliklarni yangi sharoitga muvofiq qayta shakllantirish orqali yuzaga keladi [8]. Muallif 211 ta kichik va o'rta korxona asosida olib borgan tadqiqotida innovatsion qobiliyat va strategik orientatsiya strategik yangilanishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, strategik yangilanish esa barqaror biznes natijadorligini kuchaytirishini aniqlagan. Shu sababli kichik tadbirkorlikni strategik boshqarishda innovatsiyani alohida funksional faoliyat emas, balki korxonaning strategiyasini muntazam yangilab borishga xizmat qiluvchi boshqaruv qobiliyati sifatida ko'rish muhimdir. W. Ko va G. Liu kichik va o'rta korxonalarning ekologik strategiyasi bilan raqobat ustunligi o'rtasidagi munosabatni dinamik qobiliyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Buyuk Britaniyaning texnologik sektoridagi 214 ta kichik va o'rta korxona asosida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik strategiyaning samaradorligi uning korxona ichida marketing hamda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar kompetensiyalarini rivojlantirish qobiliyatiga bog'liq [9]. Mualliflar ekologik yo'nalishni faqat tashqi talablarni bajarishga qaratilgan xarajat sifatida emas, balki yangi kompetensiyalarni yaratish va ular orqali moliyaviy natijadorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik resurs sifatida baholaydilar. Mazkur qarash kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini iqtisodiy samaradorlik va ekologik mas'uliyatning o'zaro integratsiyasi asosida boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Z. Gaibnazarova va B. Farkhodov O'zbekiston sanoat tarmoqlaridagi kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini strategik nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot va ilmiy-texnik rivojlanish sharoitida kichik biznesning yuqori natijalarga erishishi uning rivojlanish yo'nalishini to'g'ri tanlash va ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmini shakllantirishga bog'liq [10]. Tadqiqotchilar ichki rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarning barqarorligi o'zgarganda strategiyani o'z vaqtida qayta yo'naltirish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Shuningdek, barqaror rivojlanish indikatorlari tizimini shakllantirish va korxona faoliyati natijalarini muntazam kuzatish strategik rivojlanish dasturlarining samarali amalga oshirilishi uchun zarur boshqaruv sharti sifatida ko'rsatiladi. U. Gafurov kichik biznes subyektlari faoliyatida Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiyalash masalasini tadqiq etib, kichik tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi institut sifatida talqin qiladi. Muallifning yondashuvida kichik biznes faoliyatini faqat iqtisodiy o'sish va daromadlilik mezonlari asosida tashkil etish yetarli emas; biznes qarorlarini ijtimoiy va ekologik ustuvorliklar bilan uyg'unlashtirish zarur [11]. Shu jihatdan Barqaror rivojlanish maqsadlarini kichik tadbirkorlik faoliyatiga joriy qilish alohida tashqi talab emas, balki korxonaning uzoq muddatli strategik rivojlanish yo'nalishlarini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. M. Abdullaev kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi va faoliyat samaradorligini ta'minlashda kichik biznesning o'ziga xos boshqaruv ustunliklariga e'tibor qaratadi. Muallif kichik biznesga xos bo'lgan mahalliy iqtisodiy sharoitlarga tez moslashish, boshqaruv qarorlarini nisbatan mustaqil va tezkor qabul qilish, faoliyatni kamroq xarajatlilar bilan qayta tashkil etish hamda bozor talablari o'zgarganda ishlab chiqarish jarayonlariga tezkor o'zgartirish kiritish imkoniyatlarini barqaror rivojlanishning muhim omillari sifatida ko'rsatadi [12]. Ushbu yondashuvga ko'ra, kichik tadbirkorlikning barqarorligi faqat tashqi ko'mak hajmi bilan emas, balki korxonaning ichki boshqaruv moslashuvchanligi va strategik reaksiyasining tezligi bilan ham belgilanadi.

Ko'rib chiqilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda kichik va o'rta korxonalarning barqaror rivojlanishi strategik yo'nalish, dinamik qobiliyatlar, strategik yangilanish, innovatsion kompetensiyalar va ekologik strategiyalar bilan chambarchas bog'lanmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda esa barqaror rivojlanish mexanizmlari, strategiyani tashqi muhit o'zgarishlariga moslashtirish, Barqaror rivojlanish maqsadlarini biznes faoliyatiga integratsiyalash va kichik biznesning boshqaruv moslashuvchanligidan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda strategik boshqaruv mexanizmlarining o'rnini aniqlash maqsadida tizimli va strategik tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik



tahlil, ilmiy abstraksiyalash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida strategik rejalashtirish, raqamli va ekologik transformatsiya, innovatsion faollik, tashkiliy moslashuvchanlik hamda strategik monitoring omillarining kichik biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga ta'siri o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik tadbirkorlik subyektlarini strategik boshqarish mexanizmlarini tahlil qilish korxona faoliyatining faqat joriy iqtisodiy natijalarini emas, balki uning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, texnologik moslashuvchanligi, ekologik mas'uliyati va yangi bozor imkoniyatlarini o'zlashtirish qobiliyatini ham baholashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, strategik boshqaruv kichik biznes uchun an'anaviy rejalashtirish vositasi emas, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarni oldindan anglash, strategik ustuvorliklarni qayta shakllantirish, resurslarni istiqbolli faoliyat yo'nalishlariga safarbar etish va erishilgan natijalarni muntazam monitoring qilishga asoslangan uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini strategik boshqarish bo'yicha integral hisoblash tizimi¹

Ko'rsatkich	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilar mazmuni	Strategik boshqaruvdagi talqini
Strategik moslashuvchanlik indeksi	$SAI = \sqrt[3]{(EM \times RR \times SR)}$	EM – tashqi muhit monitoringi darajasi; RR – resurslarni qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati; SR – strategik qarorlarni yangilash tezligi.	Korxonaning bozor, texnologiya va institutsional o'zgarishlarga qanchalik tez va tizimli moslasha olishini ifodalaydi.
Innovatsion yangilanish indeksi	$IRI = ((PI + TI + OI) / 3) \times IC$	PI – mahsulot innovatsiyasi; TI – texnologik innovatsiya; OI – tashkiliy innovatsiya; IC – innovatsiyalarni tijoratlashtirish koeffitsiyenti.	Innovatsion faoliyatning mavjudligini emas, uning biznes natijalariga aylanish darajasini aks ettiradi.
Raqamli strategik yetuklik indeksi	$DMI = ((DP + DA + DI + DC) / 4) \times INTd$	DP – jarayonlarni raqamlashtirish; DA – ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv; DI – raqamli infratuzilma; DC – raqamli kompetensiyalar; INTd – raqamli integratsiya darajasi.	Raqamli vositalarning alohida mavjudligini emas, ularning boshqaruv tizimiga integratsiya qilinish darajasini ko'rsatadi.
Inson kapitalining strategik salohiyati	$HCI = \alpha_1 SC + \alpha_2 LC + \alpha_3 EC, \sum \alpha_i = 1$	SC – strategik kompetensiyalar; LC – o'rganish qobiliyati; EC – xodimlarning o'zgarishlarga moslashuvchanligi; α_i – vazn koeffitsiyentlari.	Xodimlar bilim va ko'nikmalarining uzoq muddatli strategiyani amalga oshirish imkoniyatiga ta'sirini ifodalaydi.
Ekologik strategik samaradorlik indeksi	$GEI = (RE \times EE \times WM) / EI$	RE – resurslardan foydalanish samaradorligi; EE – energiya samaradorligi; WM – chiqindilarni boshqarish darajasi; EI – ekologik ta'sir intensivligi.	Resurs tejamlorligi va ekologik ta'sirning strategik muvozanatini tavsiflaydi.
Manfaatdor tomonlar bilan strategik integratsiya indeksi	$STI = \sum_{j=1}^m \beta_j R_j, \sum \beta_j = 1$	R_j – mijozlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar, davlat institutlari va hamkorlar bilan munosabat sifati; β_j – ularning strategik ahamiyati.	Korxonaning tashqi va ichki manfaatdor tomonlar bilan barqaror qiymat yaratish qobiliyatini aniqlaydi.
Strategiyani amalga oshirish samaradorligi	$SEI = (\sum_{k=1}^n w_k A_k) / (\sum_{k=1}^n w_k T_k)$	A_k – amalda erishilgan strategik natija; T_k – maqsadli ko'rsatkich; w_k – strategik ko'rsatkichning ustuvorlik vazni.	Rejalashtirilgan strategik maqsadlarning amalda qay darajada bajarilganini ko'rsatadi.
Strategik muvozanatsizlik koeffitsiyenti	$SBI = \sqrt{(\sum_{i=1}^6 (X_i - \bar{X})^2 / 6)}$	X_i – SAI, IRI, DMI, HCI, GEI, STI indeksi; $\bar{X}$ – ularning o'rtacha qiymati.	Strategik rivojlanish komponentlari o'rtasidagi tafovutni aniqlaydi; qiymat oshgani sari tizimdagi nomutanosiblik kuchayadi.

1 Muallif ishlanmasi.



Ko'rsatkich	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilar mazmuni	Strategik boshqaruvdagi talqini
Integral strategik barqaror rivojlanish indeksi	$ISSDI = (SAI^{w_1} \times IRI^{w_2} \times DMI^{w_3} \times HCI^{w_4} \times GEI^{w_5} \times STI^{w_6}) \times SEI \times e^{(-\lambda SBI)}$	$w_1, \dots, w_6$ – komponentlarning strategik vaznlari, $\sum w_i = 1$; SEI – strategiya ijrosi samaradorligi; SBI – muvozanatsizlik koeffitsiyenti; λ – nomutanosiblik uchun jarima parametri.	Kichik tadbirkorlik subyekting strategik boshqaruv sifati va barqaror rivojlanish darajasini kompleks tarzda ifodalaydi.

Integral ko'rsatkichning umumlashtiruvchi formulasi:

$$ISSDI = (SAI^{w_1} \times IRI^{w_2} \times DMI^{w_3} \times HCI^{w_4} \times GEI^{w_5} \times STI^{w_6}) \times SEI \times e^{(-\lambda SBI)}$$

$$\sum_{i=1}^6 w_i = 1, \quad 0 \leq X_i \leq 1$$

$$\text{Rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar uchun: } x_i^* = (x_i - x_{\min}) / (x_{\max} - x_{\min})$$

$$\text{Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlar uchun: } x_i^* = (x_{\max} - x_i) / (x_{\max} - x_{\min})$$

Mazkur normallashtirish tartibi turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni yagona integral tizimga kiritish imkonini beradi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ISSDI qiymatining oshishi kichik tadbirkorlik subyektida strategik boshqaruvning tashqi muhitni anglash, innovatsion yangilanish, raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik mas'uliyat, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik va strategiya ijrosini nazorat qilish yo'nalishlarida muvozanatli shakllanganligini bildiradi. Shu sababli mazkur yondashuv barqaror rivojlanishni alohida iqtisodiy natija emas, balki korxonaning turli strategik qobiliyatlari o'rtasidagi sinergiya va muvozanat natijasi sifatida o'lchash imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu tadqiqotni xorijiy tajriba asosida o'rganishda Singapur tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu davlatda kichik va o'rta korxonalar iqtisodiy tizimning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Singapur Statistika departamenti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda jami 356,1 mingta korxona faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 99 foizini kichik va o'rta korxonalar tashkil qilgan. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes mamlakatdagi jami bandlikning 70 foizini va nominal qo'shilgan qiymatning 47 foizini ta'minlagan [13]. Mazkur nisbat kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi barqarorligi umumiy iqtisodiy o'sish, mehnat bozori va qo'shilgan qiymat yaratish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Singapur tajribasining muhim jihati shundaki, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish siyosati davlat ko'magini alohida subsidiyalari yoki qisqa muddatli moliyaviy yordam bilan cheklamaydi. Aksincha, strategik boshqaruvning raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, ekologik transformatsiya, kompetensiyalarni rivojlantirish va yangi bozor imkoniyatlarini o'zlashtirish kabi yo'nalishlari yagona institutsional tizimga birlashtirilgan. Bunday yondashuv kichik biznesni tashqi muhitdagi o'zgarishlarga asosan moslashuvchi xo'jalik subyekti sifatida emas, balki o'z strategik imkoniyatlarini muntazam ravishda yangilaydigan tashkilot sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, raqamli transformatsiya Singapurdagi kichik biznesni strategik boshqarishning muhim tayanchiga aylangan. Infocomm Media Development Authority ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatdagi kichik va o'rta korxonalarning 95,1 foizi kamida bitta raqamli yo'nalishni faoliyatiga joriy qilgan. 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 94,5 foizni tashkil etgan. Bundan tashqari, bir korxonaga to'g'ri keladigan o'zlashtirilgan raqamli yo'nalishlar soni 2023-yildagi o'rtacha 2,0 tadan 2024-yilda 2,3 taga oshgan. Bu raqamlar raqamlashtirish jarayonining faqat qamrov jihatidan emas, balki chuqurligi bo'yicha ham kengayayotganini ko'rsatadi.

Yanada e'tiborli jihati shundaki, 2024-yilda Singapur kichik va o'rta korxonalarning 97 foizi kamida bitta tarmoqqa xos raqamli yechimni joriy qilgan bo'lib, 2023-yilda bu ko'rsatkich 85 foiz edi. Bir yil ichidagi 12 foiz punktlilik o'sish kichik biznesni strategik boshqarishda universal dasturiy vositalardan tarmoqning xususiyatlariga mos maxsus texnologik yechimlarga o'tish kuchayayotganini bildiradi. Bunday transformatsiya korxonaning joriy xarajatlarini kamaytirish bilangina cheklanmay, mijozlarga xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish jarayonlari, ma'lumotlar tahlili va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatadi.

Sun'iy intellektidan foydalanish ko'rsatkichlari strategik boshqaruvning texnologik komponenti yanada chuqurlashayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda Singapur kichik va o'rta korxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi 4,2 foizdan 14,5 foizgacha, ya'ni uch baravardan ko'proqqa oshgan. Shu bilan birga, Productivity Solutions Grant doirasida sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni joriy qilgan kichik va o'rta korxonalar o'rtacha 52 foiz xarajat tejallishini qayd etgan. Bu holat raqamli texnologiyalar strategik boshqaruvda faqat texnologik modernizatsiya vositasi emas, balki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va biznesning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash mexanizmi ekanligini ko'rsatadi.

Singapur tajribasining ikkinchi muhim yo'nalishi — ekologik barqarorlikni kichik biznes strategiyasiga integratsiyalashdir. Enterprise Singapore ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 3 700 dan ortiq korxona turli

barqarorlik tashabbuslari doirasida qo'llab-quvvatlangan, 2023-yildan boshlab esa bunday korxonalar soni 7 100 dan oshgan. Shu davrda yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun 337 million Singapur dollari miqdoridagi yashil kreditlar jalb qilingan, 2023-yildan boshlab ularning umumiy hajmi 565 million Singapur dollariga yetgan. Bundan tashqari, 2024-yilda barqarorlikka oid tashabbuslar uchun 38 million Singapur dollari miqdorida grantlar, 2023-yildan boshlab esa jami 67 million Singapur dollari ajratilgan [14]. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik strategiyani korxona xarajatlarini oshiruvchi tashqi talab sifatida emas, balki uzoq muddatli o'sish imkoniyatlarini shakllantiruvchi strategik investitsiya sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Enterprise Singapore tomonidan qo'llanilayotgan yondashuvda barqarorlik loyihalari barqarorlik risklari va imkoniyatlarini aniqlash, strategiyani ishlab chiqish, boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, mezon va maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash kabi bosqichlarni qamrab oladi. Bu esa ekologik yo'nalishning alohida loyihadan korporativ strategiya elementiga aylantirilayotganini anglatadi.

Kichik biznes uchun ekologik transformatsiyani qo'llab-quvvatlashda "SME Sustainability Reporting Programme" ham muhim mexanizm hisoblanadi. Dastur doirasida mahalliy, birjada ro'yxatdan o'tmagan kichik va o'rta korxonalarning dastlabki barqarorlik hisobotini tayyorlash xarajatlarining 70 foizigacha qismi qoplanadi. Ushbu yordam 2024-yil 1-noyabrdan 2027-yil 31-oktabrgacha murojaat qiluvchi korxonalar uchun amal qiladi. Dastur korxonalarga muhim ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarni aniqlash, zarur ma'lumotlarni yig'ish va GRI hamda TCFD tamoyillariga mos hisobot ishlab chiqishda ko'maklashadi. Bu mexanizm strategik boshqaruv nuqtai nazaridan juda muhimdir. Chunki kichik biznesda barqarorlik to'g'risidagi axborotlarni muntazam yig'ish va o'lchash korxona rahbariyatiga energiya sarfi, resurslardan foydalanish, chiqindilar, ta'minot zanjiri va boshqa uzoq muddatli risklarni aniq indikatorlar orqali nazorat qilish imkonini beradi. Natijada barqarorlik strategiyasi deklarativ maqsaddan o'lchanadigan va nazorat qilinadigan boshqaruv jarayoniga aylanadi. 2025-yilda Singapurda kichik va o'rta biznes uchun SME Sustainability Hubning ishga tushirilishi ushbu jarayonni yanada institutsionallashtirdi. Mazkur yagona platformada kichik biznes uchun moliyaviy dasturlar, xodimlarni "yashil" kompetensiyalarga o'qitish, tarmoq bo'yicha qo'llanmalar, barqarorlik hisoboti va uglerodni boshqarish vositalari birlashtirilgan. Bunday tizim kichik korxonalarning turli davlat tashkilotlari o'rtasida zarur yordamni mustaqil izlash xarajatlarini kamaytirib, strategik transformatsiyani amalga oshirish uchun zarur axborot va institutsional resurslarga kirishni soddalashtiradi.

Shu bilan birga, Singapur tajribasi kichik biznesda raqamli va ekologik transformatsiya hali to'liq yakunlanmaganini ham ko'rsatadi. IMDAning 2025-yilda o'tkazgan so'roviga ko'ra, kichik va o'rta korxonalarning 27 foizi kamida bitta raqamli barqarorlik yechimini joriy qilgan. Taqqoslash uchun, yirik korxonalarda bu ko'rsatkich 81 foizni tashkil etgan. Raqamli barqarorlik vositalaridan foydalangan korxonalarning 82 foizi ulardan ijobiy natija, xususan, operatsion samaradorlik va mehnat unumdorligining oshishini qayd etgan. Biroq barqarorlik faoliyatini hali boshlamagan korxonalar orasida 38 foizi yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarning yo'qligini asosiy to'siqlardan biri sifatida ko'rsatgan. Singapur tajribasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ham alohida boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. 2025-yilda Enterprise Singapore va OCBC tomonidan ishga tushirilgan SME Start-ESG Programme doirasida dastlab 300 ta kichik va o'rta korxonani jalb qilish rejalashtirilgan. Dastur ishtirokchilari ekologik samaradorlikning boshlang'ich darajasini aniqlash, uglerod izini hisoblash va barqarorlik bo'yicha ekspert maslahatlarini olish imkoniyatiga ega. Enterprise Singapore uch yil davomida har yili amalga oshiriladigan baholash xarajatlarining 70 foizigacha qismini qo'llab-quvvatlaydi. Natijalar esa korxonalar uchun barqarorlikka bog'langan kreditlardan foydalanishga asos yaratadi.

Shuningdek, Singapur tajribasidan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini boshqarishda faqat korxonaning joriy iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli emasligi aniqlanadi. Strategik monitoring tizimi raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish qobiliyati, resurs va energiya samaradorligi, xodimlar kompetensiyalarining yangilanishi, bozorlar va mijozlar tarkibining diversifikatsiyasi hamda ekologik ko'rsatkichlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv korxona faoliyatida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarini moliyaviy natijalar namoyon bo'lishidan oldin aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida mazkur tajribani aynan ko'chirish emas, balki uning boshqaruv tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun strategik diagnostikaning soddada metodikasini ishlab chiqish, raqamli va ekologik transformatsiyani yagona biznes strategiyasiga birlashtirish, davlat ko'magi instrumentlarini korxonaning aniq strategik maqsadlari bilan bog'lash, xodimlar kompetensiyalarini rivojlantirish hamda strategik natijalarni muntazam indikatorlar orqali nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada kichik biznesni boshqarish qisqa muddatli bozor o'zgarishlariga javob berishga asoslangan operativ yondashuvdan tashqi o'zgarishlarni oldindan hisobga oluvchi, yangi imkoniyatlarni shakllantiruvchi va uzoq muddatli iqtisodiy, texnologik hamda ekologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik boshqaruv tizimiga o'tishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash strategik boshqaruvning alohida funksiyalarini qo'llash bilan emas, balki ularni o'zaro muvofiqlashtirilgan yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Strategik rejalashtirish, tashqi muhit monitoringi, innovatsion yangilanish, raqamli transformatsiya, resurs va kompetensiyalarni maqsadli safarbar etish hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar barqaror rivojlanishning iqtisodiy natijadorlik bilangina chegaralanmasligini, balki korxonaning texnologik moslashuvchanligi, tashkiliy yangilanish qobiliyati, resurslardan oqilona foydalanishi va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezkor javob bera olishi bilan ham belgilanayotganini ko'rsatdi. Shu jihatdan kichik tadbirkorlik subyektlarida strategik boshqaruvni qisqa muddatli operativ qarorlardan uzoq muddatli ustuvorliklarga asoslangan, muntazam monitoring va strategik yangilanishni nazarda tutuvchi boshqaruv tizimiga aylantirish zarur.

Shu asosda kichik tadbirkorlik subyektlarida tashqi muhit o'zgarishlarini muntazam kuzatish, strategik maqsadlarni o'lchanadigan indikatorlar bilan bog'lash, raqamli va ekologik transformatsiyani biznes strategiyasining tarkibiy qismiga aylantirish, xodimlarning strategik va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish hamda strategiya ijrosini muntazam qayta ko'rib borish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv kichik biznesning nafaqat mavjud bozor sharoitlariga moslashishini, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlashi va ulardan samarali foydalanishini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bani Mfarrej M. F., Belyamani I., Ahmad S. Z., Abu Bakar A. R. Exploring the path to sustainable firm performance: The role of leadership, learning, and procurement in SMEs // *Sustainable Futures*. – 2025. – Vol. 10. – Art. 101454. – DOI: 10.1016/j.sft.2025.101454.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>. – Murojaat sanasi: 31.08.2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar [Elektron resurs]. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2026. – Murojaat sanasi: 31.08.2026.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar [Elektron resurs]. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2026. – Murojaat sanasi: 31.08.2026.
5. Mustapha R. How digital transformation enhances sustainable performance through dynamic capabilities and open innovation practices in small and medium enterprises // *Discover Sustainability*. – 2026. – Vol. 7. – Art. 1083. – DOI: 10.1007/s43621-026-03347-x.
6. OECD. OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 484 p. – DOI: 10.1787/342b8564-en.
7. Zahoor N., Lew Y. K. Sustaining superior international performance: Strategic orientations and dynamic capability of environmentally concerned small- and medium-sized enterprises // *Business Strategy and the Environment*. – 2022. – Vol. 31, No. 3. – P. 1002–1017. – DOI: 10.1002/bse.2931.
8. Larabi C. Linking innovation capability, strategic orientation, and strategic renewal to sustainable performance: A dynamic capabilities perspective in Saudi small and medium enterprises // *Business Strategy and the Environment*. – 2026. – Vol. 35, No. 1. – P. 1255–1271. – DOI: 10.1002/bse.70229.
9. Ko W. W., Liu G. Environmental strategy and competitive advantage: The role of small- and medium-sized enterprises' dynamic capabilities // *Business Strategy and the Environment*. – 2017. – Vol. 26, No. 5. – P. 584–596. – DOI: 10.1002/bse.1938.
10. Gaibnazarova Z. T., Farkhodov B. U. Priority directions and trends of the mechanism of sustainable development of the activities of small business entities in industrial sectors of Uzbekistan // *Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики*. – 2023. – P. 54–58. – DOI: 10.47689/TSUE2022-pp54-58.
11. Gafurov U., Ismoilov N. Implementing sustainable development goals in small business entities // *Journal of Sustainable Development and Green Technology*. – 2023. – Vol. 2, No. 1. – P. 46–49. – DOI: 10.54216/JSDGT.020105.
12. Abdullaev M. M. Problems of providing sustainable development and increase efficiency of small business subjects // *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2022. – Vol. 2, No. 11. – P. 277–283. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.eijmrm.23192.
13. Infocomm Media Development Authority. Singapore Digital Economy Report 2025 [Electronic resource]. – Singapore: IMDA, 2025. – Murojaat sanasi: 31.08.2026.
14. Enterprise Singapore, OCBC. OCBC and Enterprise Singapore launch new SME programme to spur climate action [Electronic resource]: Joint media release. – Singapore, 12 February 2025. – Murojaat sanasi: 31.08.2026.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100